



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No8
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 168 sahifa.

2025-yil noyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna	
FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS	15
Ibrokhimkhuja Rikhsikhujayev, Mohit Bhandwal	
BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	22
Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	27
Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....	32
Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI	36
Mirkamolov Mirsardor Mirxamdami o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdulkarimovich	
STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI	41
Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG'URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	46
Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI.....	50
Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE	56
Pirnazarov Elchin Anvar o'g'li, Yoldasheva Roila Jumaevna	
JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK	61
Qayumov Sobit Obid o'g'li, Xasanov Nodir Erkinovich	
LABOR RESOURCES – THE MAIN FACTOR OF NATIONAL DEVELOPMENT.....	68
Qurbanov Tolmasjon Namoz ug'li, Mustafayev Golib Sultonmurodovich	
ISTE'MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI.....	75
Q.Abdulkarimov, M.Keldibekova, F.Umarov	
KORXONALARDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	80
Tumaris Nietullaeva, Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI	87
Kodirov Ozodbek, F.Umarov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI VA TARMOQNING MAMLUKAT EKSPORTIDAGI O'RNI.....	93
G'ulomiddin Bobobek Sardorjon o'g'li, G'ulamov Ilhom Akramovich	
BIZNESNI BOSHQARISHDA ERP TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	98
Abduhamidova Shodiyaxon Abdushukur qizi, Yuldashev Abduhakim Abdulkarimovich	
O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON HAMKORLIK MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHI	103
Fayzullayev Aminjon, F.Umarov	
O'ZBEKISTONDA HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLAR	110
Najmiddinova Malikabonu Asrorovna, F.Umarov	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'INING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI XUSUSIDA	117
Mahmudov Orifbek Abdumomin o'g'li, Azmiova Feruza Payziyevna	



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING TARKIBIY RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	122
Xayrullayev Javohir Sheraliyevich, Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o'g'li	
MINTAQALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLISH VA XALQARO TAJRIBA.....	128
Xudoyberdiyev Feruzbek, F.Umarov	
MINTAQALAR IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH HOLATINI BAHOLASH: TAHLIL VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	135
Yarashev Mirkomil, F.Umarov	
OROL DENGIZI INQIROZI OQIBATIDA YER DEGRADATSIYASI VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH IMKONIYATLARI: QORAQALPOG'ISTON MISOLIDA (NDVI VA NDMI TAHLILI ASOSIDA)	141
Nurmatova Shahzoda, Oralbaev Bakhitjan Orintaevich, Ruziyeva Iroda Davutovna, Turotova Nigora Xolmurod qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	147
Abubakirova Xonzoda, F.U.Umarov	
ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И МОЛОДЁЖЬ: ПРОБЛЕМЫ ДУХОВНОГО ИММУНИТЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	154
Абдуллаев Бехзод Баходир угли, Байбобоева Фируза Набижоновна	
SUN'IY INTELLEKT NAZARIYASI VA AMALIYOTI: TAJRIBALAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	158
Hamroyeva Dilnura G'ayrat qizi, To'qmirzayev Kamol Mo'min o'g'li	
QISHLOQ HUDUDLARIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA XALQARO TASHKILOTLARNING (FAO, UNDP, IFAD) LOYIHALARI TAJRIBASI	162
Z.B.Negmatullayeva, O.Q.Xudayberdiyeva	



QISHLOQ HUDUDLARIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA XALQARO TASHKILOTLARNING (FAO, UNDP, IFAD) LOYIHALARI TAJRIBASI

Z.B.Negmatullayeva

714-24 MNT guruh talabasi
Rustamov A.A.

Ilmiy rahbar:

O.Q.Xudayberdiyeva

Buxoro davlat texnika universiteti

«Iqtisodiyot va menejment» kafedrası o'qituvchi-stajyorlari

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot O'zbekistonda qishloq hududlarida kambag'allikni qisqartirishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Birlashgan Millatlar Taraqqiyot dasturi (UNDP) va Xalqaro qishloq xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi (IFAD) loyihalarining samaradorligini tahlil qiladi. Tadqiqotda aralash metodologiya qo'llanilgan bo'lib, u miqdoriy statistik tahlil va sifatiy loyiha baholashni o'z ichiga oladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, xalqaro tashkilotlar loyihalari O'zbekistonda kambag'allik darajasini 2021-yildagi 17 foizdan 2024-yil oxiriga kelib 8,9 foizgacha kamaytirishga sezilarli hissa qo'shgan. IFAD tomonidan moliyalashtirilgan Qishloq xo'jaligini diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash loyihasi (ADMP) Farg'ona vodiysida 75 000 oilaning daromadini oshirishga yordam bergan. FAO ning "Raqqamli qishloqlar tashabbusi" va UNDP ning "Kambag'allikdan farovonlikka" dasturi innovatsion yondashuvlarni joriy etgan. Tadqiqot xalqaro tashkilotlar tajribasini milliy rivojlanish strategiyalari bilan integratsiyalashning samarali modelini taklif qiladi.

Kalit so'zlar: qishloq kambag'alligi, xalqaro tashkilotlar, FAO, UNDP, IFAD, barqaror rivojlanish, O'zbekiston.

Abstract: This study analyzes the effectiveness of the projects implemented by the Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO), the United Nations Development Programme (UNDP), and the International Fund for Agricultural Development (IFAD) in reducing poverty in rural areas of Uzbekistan. A mixed-methods approach was employed, combining quantitative statistical analysis with qualitative project evaluation. The findings indicate that international organizations' initiatives contributed significantly to reducing Uzbekistan's poverty rate from 17 percent in 2021 to 8.9 percent by the end of 2024. The IFAD-funded Agricultural Diversification and Modernization Project (ADMP) helped increase the incomes of 75,000 households in the Fergana Valley. FAO's "Digital Villages Initiative" and UNDP's "From Poverty to Prosperity" programme introduced innovative approaches. The study proposes an effective model for integrating the experience of international organizations with national development strategies.

Key words: rural poverty, international organizations, FAO, UNDP, IFAD, sustainable development, Uzbekistan.

Аннотация: Данное исследование анализирует эффективность проектов Продовольственной и сельскохозяйственной организации ООН (ФАО), Программы развития Организации Объединённых Наций (ПРООН) и Международного фонда сельскохозяйственного развития (МФСР) в сокращении бедности в сельских районах Узбекистана. В исследовании использована смешанная методология, включающая количественный статистический анализ и качественную оценку проектов. Результаты показывают, что проекты международных организаций внесли значительный вклад в снижение уровня бедности в Узбекистане — с 17 процентов в 2021 году до 8,9 процента к концу 2024 года. Проект «Диверсификация и модернизация сельского хозяйства» (ADMP), финансируемый МФСР, помог увеличить доходы 75 000 семей в Ферганской долине. Инициатива ФАО «Цифровые деревни» и программа ПРООН «От бедности к благополучию» внедрили инновационные подходы. Исследование предлагает эффективную модель интеграции опыта международных организаций с национальными стратегиями развития.

Ключевые слова: сельская бедность, международные организации, ФАО, ПРООН, МФСР, устойчивое развитие, Узбекистан.



KIRISH

Kambag'allik jahon miqyosida eng muhim ijtimoiy muammolardan biri bo'lib, uning bartaraf etilishi Barqaror rivojlanish maqsadlarining (BRM) birinchi maqsadi sifatida belgilangan. Xalqaro qishloq xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi (IFAD) ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilgacha dunyo bo'yicha kambag'al aholining 60 foizdan ortig'i qishloq hududlarida yashashda davom etadi. Bu holat qishloq hududlarida kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan xalqaro sa'y-harakatlarning ahamiyatini yanada oshiradi. O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda kambag'allikni qisqartirishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Hukumat ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda kambag'allik darajasi 2021-yildagi 17 foizdan 2024-yil oxiriga kelib 8,9 foizgacha kamaydi. Bunda qishloq hududlari eng yuqori ko'rsatkichlarni namoyish etdi - kambag'allik darajasi 7,8 foiz punktga qisqardi. Ushbu muvaffaqiyatda xalqaro tashkilotlar - FAO, UNDP va IFAD ning loyihalari muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekistonda qishloq hududlarida kambag'allik darajasi shahar hududlariga nisbatan yuqori bo'lib qolmoqda. Ko'p o'lchamli kambag'allik indeksi (MPI) bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, qishloq hududlarida kambag'allik darajasi 23,2 foizni tashkil etsa, shahar hududlarida bu ko'rsatkich 13,9 foizni tashkil qiladi. Mamlakatning umumiy aholisining yarmi qishloq hududlarida istiqomat qiladi, past daromadli aholining 75 foizi esa qishloqlarda yashaydi. Qishloq xo'jaligi YaIM ning 25 foizini tashkil qiladi va har beshinchi kishini ish bilan ta'minlaydi. Bu holat qishloq hududlarini rivojlantirish, aholining turmush darajasini yaxshilash va kambag'allikni qisqartirishning ustuvor yo'nalish sifatida belgilanishini talab qiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi - O'zbekistonda qishloq hududlarida kambag'allikni qisqartirishda FAO, UNDP va IFAD loyihalarining samaradorligini baholash va xalqaro tajribadan foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilgan: (1) xalqaro tashkilotlarning qishloq kambag'alligini qisqartirishdagi global tajribasini tahlil qilish; (2) FAO, UNDP va IFAD ning O'zbekistondagi loyihalarini o'rganish va ularning natijalarini baholash; (3) loyihalar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash; va (4) kambag'allikni qisqartirishning eng yaxshi amaliyotlarini milliy kontekstga moslashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish. Ushbu tadqiqot nazariy va amaliy jihatdan ahamiyatga ega. Nazariy jihatdan, tadqiqot xalqaro tashkilotlarning kambag'allikni qisqartirishdagi rolini tizimli tahlil qilish orqali mavjud ilmiy adabiyotlarni boyitadi. Amaliy jihatdan esa, tadqiqot natijalari milliy siyosat ishlab chiqaruvchilar, hududiy boshqaruv organlari va xalqaro hamkorlik dasturlari uchun qimmatli ma'lumot bazasi bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston rivojlanish strategiyasi va 2030-yilgacha kambag'allikni yarim marta qisqartirish maqsadlariga erishishga hissa qo'shadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kambag'allik - bu ko'p qirrali ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo'lib, uning ta'rifi va o'lchamlari vaqt o'tishi bilan takomillashib kelgan. An'anaviy yondashuvda kambag'allik asosan daromad ko'rsatkichlari orqali o'lchangan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Jahon banki dunyo bo'ylab \$2,15/kun (2017 yil narxlarida) chegarasini ekstremal kambag'allik standarti sifatida belgilaydi. Amartya Sen tomonidan ishlab chiqilgan "imkoniyatlar" (capabilities) yondashuvi kambag'allikni nafaqat daromad tanqisligi, balki insonning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlarining cheklanganligi sifatida ta'riflaydi.

Oxirgi yillarda ko'p o'lchamli kambag'allik indeksi (MPI) keng qo'llanila boshladi. Oksford kambag'allik va inson rivojlanishi tashabbusi (OPHI) va UNDP tomonidan ishlab chiqilgan ushbu metodologiya kambag'allikni ta'lim, sog'liqni saqlash va turmush standarti kabi uchta asosiy o'lchov bo'yicha baholaydi. O'zbekiston 2024-yilda milliy MPI ni joriy etgan bo'lib, u asosiy infratuzilma va turmush sharoitlari, sog'liqni saqlash va ijtimoiy kapital, bandlik va moliyaviy inklyuzivlik kabi 13 ta ko'rsatkichni qamrab oladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, qishloq kambag'alligini samarali qisqartirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. FAO ning siyosat tavsiyalariga ko'ra, kambag'allikni bartaraf etishning asosiy yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: qishloq xo'jaligi va ijtimoiy himoya o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash; ishlab chiqaruvchilar tashkilotlari va qishloq institutlarining salohiyatini oshirish; qishloq infratuzilmasiga, tadqiqotlar va xizmatlarga investitsiyalarni ko'paytirish. Iqlim o'zgarishiga moslashish va barqaror oziq-ovqat tizimlarini shakllantirish ham muhim omillar sifatida belgilangan.

IFAD ning global tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali kambag'allikni qisqartirish loyihalari quyidagi xususiyatlarga ega: kambag'al aholi manfaatlarini markazga qo'yish, gender tenglikni ta'minlash, mahalliy institutlarni mustahkamlash, tabiiy resurslarni barqaror boshqarish va xususiy sektor bilan hamkorlik. Xitoy, Vetnam, Hindiston va Braziliya kabi mamlakatlarning tajribasi maqsadli dasturlar, infratuzilma investitsiyalari va ijtimoiy himoya tizimlarini kengaytirish strategiyalarining samaradorligini tasdiqlaydi. FAO (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti) oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq kambag'alligini qisqartirish va tabiiy resurslarni barqaror boshqarish bo'yicha texnik yordam ko'rsatadi. Tashkilot yer boshqaruvi, iqlimga chidamli qishloq xo'jaligi, raqamli qishloqlar tashabbusi va gender tenglik kabi yo'nalishlarda faoliyat



yuritadi. UNDP barqaror rivojlanish dasturlari orqali kambag'allik va tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshiradi. Tashkilot marginalashgan jamoalarni qo'llab-quvvatlash, muhim resurslarga kirishni yaxshilash va mahalliy imkoniyatlarni mustahkamlash orqali turmush sharoitlarini yaxshilashga hissa qo'shadi. UNDP ning O'zbekistondagi faoliyati Barqaror rivojlanish maqsadining 1-maqsadi - kambag'allikni barcha shakllarida tugatishga bevosita yo'naltirilgan.

IFAD rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq kambag'alligini bartaraf etishga ixtisoslashgan xalqaro moliya instituti va BMT ning ixtisoslashgan tashkilotidir. 1978-yildan buyon IFAD 22,4 milliard AQSh dollari miqdorida grantlar va imtiyozli kreditlar ajratgan bo'lib, ular taxminan 512 million kishiga foyda keltirgan. Tashkilot qishloq xo'jaligi qiymat zanjirlarini rivojlantirish, qishloq moliyasi, tabiiy resurslarni boshqarish va iqlimga moslashuvchanlikni oshirishga investitsiya qiladi.

1-jadval. FAO, UNDP va IFAD ning kambag'allikni qisqarishdagi strategik yo'nalishlari

Tashkilot	Asosiy faoliyat yo'nalishlari	O'zbekistondagi loyihalar
FAO	Oziq-ovqat xavfsizligi, yer boshqaruvi, iqlimga chidamli qishloq xo'jaligi, raqamli texnologiyalar	Raqamli qishloqlar tashabbusi, yer islohotlarini qo'llab-quvvatlash, qurg'oqchilik boshqaruvi
UNDP	Barqaror rivojlanish, ijtimoiy himoya, boshqaruv islohatlari, atrof-muhit muhofazasi	«Kambag'allikdan farovonlikka» dasturi, Barqaror qishloq rivojlanish loyihasi, MPI joriy etish
IFAD	Qishloq moliyasi, qiymat zanjirlari, dehqon xo'jaliklari, tabiiy resurslarni boshqarish	ADMP loyihasi, PRIME pul o'tkazmalari tashabbusi, Hamkorbank bilan hamkorlik

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda aralash metodologiya (mixed-methods) qo'llanilgan bo'lib, u miqdoriy va sifatiy tahlil usullarini birlashtiradi. Miqdoriy komponent ikkilamchi ma'lumotlar tahlilini o'z ichiga oladi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki va xalqaro tashkilotlarning rasmiy statistikasi. Sifatiy komponent loyiha hujjatlari, baholash hisobotlari va strategik rejalarining kontentini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Tadqiqotda quyidagi ma'lumot manbalari qo'llanilgan: (1) O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistikasi - kambag'allik darajasi, qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari, bandlik statistikasi; (2) FAO, UNDP va IFAD loyihalarining rasmiy hujjatlari va hisobotlari; (3) Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki ma'lumotlari; (4) ilmiy adabiyotlar va xalqaro tadqiqotlar. Tahlil davri 2019-2024-yillarni qamrab oladi, bu esa loyihalar ta'sirini baholash uchun yetarli vaqt oralig'ini ta'minlaydi.

2-jadval. Tadqiqot o'zgaruvchilari va ma'lumot manbalari

O'zgaruvchi	Ko'rsatkichlar	Ma'lumot manbasi
Kambag'allik darajasi	Foiz ko'rsatkichi, MPI	Statistika agentligi, Jahon banki
Loyiha qamrovi	Foydalanuvchilar soni, hududlar	FAO, UNDP, IFAD hisobotlari
Moliyaviy ko'rsatkichlar	Investitsiya hajmi, disbursement	Loyiha moliyaviy hisobotlari
Ijtimoiy ta'sir	Bandlik, daromad, turmush sifati	Loyiha baholash hisobotlari

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda kambag'allik darajasi so'nggi yillarda sezilarli ravishda kamaydi. Jahon banki bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, kambag'allik darajasi 2021-yildagi 17 foizdan 2023-yilda 11 foizgacha, 2024-yil oxiriga kelib esa 8,9 foizgacha tushdi. Bu 719 000 kishining kambag'allikdan chiqishini anglatadi. Eng yuqori natijalar quyidagi viloyatlarda qayd etildi: Buxoro viloyatida 11,8 foizdan 8,7 foizgacha; Samarqand viloyatida 10,5 foizdan 7,5 foizgacha; Namangan viloyatida 10,4 foizdan 7,6 foizgacha; Qoraqalpog'iston Respublikasida 13,6 foizdan 10,8 foizgacha. Kambag'allikni qisqartirishda quyidagi omillar muhim rol o'ynadi: bandlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, uy va qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish. Natijada, aholining real daromadi 10,7 foizga o'sdi va oyiga aholi jon boshiga o'rtacha 2,1 million so'mni tashkil etdi (yil boshida 1,7 million so'm edi).



3-jadval. O'zbekistonda kambag'allik ko'rsatkichlari dinamikasi (2019-2024)

Ko'rsatkich	2019	2021	2023	2024
Kambag'allik darajasi (%)	11,0	17,0	11,0	8,9
Qishloq kambag'alligi (%)	14,5	21,8	14,0	11,2
MPI (ko'p o'lchamli, %)	-	-	18,4	15,8*
Real daromad o'sishi (%)	7,2	5,8	8,9	10,7

*Dastlabki ma'lumotlar; Manba: O'zbekiston Statistika agentligi, Jahon banki

Qishloq xo'jaligini diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash loyihasi (ADMP) 2017-yilda IFAD tomonidan tasdiqlangan bo'lib, Namangan, Farg'ona va Andijon viloyatlarida (Farg'ona vodiysi) amalga oshirilmoqda. Loyihaning umumiy qiymati 93,5 million AQSh dollarini tashkil etadi, shundan 46,2 million AQSh dollari IFAD krediti va 47 million AQSh dollari qo'shimcha moliyalashtirishdir. Loyihaning maqsadi 75 000 oila (taxminan 450 000 kishi) daromadi va turmush sharoitlarini yaxshilashdir. Loyiha uchta komponentdan iborat: inklyuziv qiymat zanjirlari rivojlanishi, inklyuziv qishloq moliyasi va iqlimga chidamli qishloq infratuzilmasi. 2023-yil oktabr oyidagi oraliq baholash (MTR) ma'lumotlariga ko'ra, loyiha 76 foiz amalga oshirish davrini o'tgan bo'lib, IFAD mablag'larining 52,8 foizi o'zlashtirilgan. Loyiha doirasida dehqon va kichik fermerlar yuqori qiymatli ekinlarga o'tish, yer unumdorligini oshirish va iqlim o'zgarishi muammolarini hal qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Muvaffaqiyatli misol sifatida, Komiljanov ismli yosh fermer ADMP kreditidan foydalanib, olti isitilgan issiqxona qurdi va yil davomida pomidor, bodring va qulupnay yetishtirmoqda. Uning mahsulotlari Rossiyaga eksport qilinadi, qulupnay esa ichki bozorga yetkazib beriladi. Komiljonovning o'sib borayotgan biznesi Xadija singari mahalliy ayollar uchun barqaror ish o'rinlarini yaratdi.

"Barqaror qishloq rivojlanish" loyihasi UNDP, Iqtisodiy rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamkorligida, Islom taraqqiyot banki va OPEC xalqaro taraqqiyot fondi moliyaviy ko'magi bilan amalga oshirilmoqda. Loyihaning asosiy maqsadi - qishloq aholisi uchun qulay turmush sharoitlarini yaratish va ularning asosiy infratuzilma, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlariga kirishini ta'minlash. Loyiha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida amalga oshirilmoqda. 2023-yil davomida loyiha doirasida 57 ta jamoada 3 303 nafar aholi (1 219 nafari ayollar) ishtirokida safarbarlik seminarlari o'tkazildi. Qishloq hududlarida mavjud axborot texnologiyalari infratuzilmasini baholash, qishloq maktablari va o'qituvchilarning raqamli savodxonligini baholash, qishloq davlat muassasalarining salohiyatini baholash ishlari amalga oshirildi. Mutaxassislar uchun 6 ta trening tashkil etildi, shu jumladan master-rejalash, agroekologiya, AutoCAD va 3D MAX dasturlaridan foydalanish bo'yicha. "Kambag'allikdan farovonlikka" dasturi 2024-yil kuzida ishga tushirilgan bo'lib, 2024-yil oxirigacha 500 000, 2025-yil oxirigacha esa 1 million kishini kambag'allikdan chiqarish maqsad qilib qo'yilgan. Dastur kasb-hunar ta'limi va ish o'rinlari yaratishga ustuvor e'tibor qaratadi. Hozirda O'zbekistonda 250 000 bo'sh ish o'рни mavjud, ammo past daromadli fuqarolarning ko'pchiligi zarur malaka va tayyorgarlikka ega emas.

FAO O'zbekistonda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi, yer boshqaruvi, iqlimga moslashish, raqamli texnologiyalar va gender tenglik yo'nalishlarida faol loyihalar amalga oshirmoqda. Tashkilot hozirda 8 ta mintaqaviy loyihada ishtirok etmoqda, ular FAO-Turkiya hamkorlik dasturlari doirasida amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq kambag'alligini kamaytirish va barqaror o'rmon xo'jaligini boshqarishga qaratilgan. Raqamli qishloqlar tashabbusi (DVI) FAO ning innovatsion loyihasi bo'lib, Farg'ona vodiysidagi Novkent va Yuksalish qishloqlari unda ishtirok etmoqda. Loyiha aqlli issiqxona texnologiyalari va bozorga kirishni yaxshilashga qaratilgan. "Hech kimni chetda qoldirmaslik" loyihasi esa Turkiya, Tojikiston va O'zbekistonda qishloq ayollarining ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga qaratilgan. Loyiha gender tenglikka erishish, qishloq ayollarining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va ularning turmush sharoitlarini yaxshilashga hissa qo'shadi.

Yer boshqaruvi ni mustahkamlash loyihasi doirasida FAO O'zbekiston Yer kodeksini qayta ko'rib chiqishda ko'mak bermoqda. Xalqaro tajribani milliy kontekstga moslashtirish orqali fermerlar va qishloq jamoalari uchun kengaytirilgan imkoniyatlar yaratilmoqda. 2025-yil sentyabr oyida o'tkazilgan seminar davomida qishloq xo'jaligi yerlari boshqaruvi bo'yicha uchta siyosat eslatmasi muhokama qilindi.



4-jadval. FAO, UNDP va IFAD loyihalarining asosiy ko'rsatkichlari

Loyiha/Dastur	Moliyalashtirish	Qamrov	Asosiy natijalar
ADMP (IFAD)	93,5 mln USD	75 000 oila, 3 viloyat	Qiymat zanjirlari, moliya, infratuzilma
Barqaror qishloq rivojlanish (UNDP)	IDB, OPEC fond	7 viloyat, 57 jamoa	Infratuzilma, ta'lim, sog'liq
Kambag'allikdan farovonlikka (UNDP)	Hukumat + UNDP	1 mln kishi (maqsad)	Kasb-hunar, tadbirkorlik
Raqamli qishloqlar (FAO)	FAO	Farg'ona vodiysi	Raqamli texnologiyalar, issiqxonalar
PRIME (IFAD)	IFAD	Migrant oilalari	Pul o'tkazmalari, moliyaviy inklyuzivlik

Manba: FAO, UNDP, IFAD rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Tadqiqot natijalari xalqaro tashkilotlar loyihalarining O'zbekistonda qishloq kambag'alligini qisqartirishga sezilarli hissa qo'shganligini tasdiqlaydi. IFAD ning ADMP loyihasi qiymat zanjirlari rivojlanishi, qishloq moliyasiga kirish va iqlimga chidamli infratuzilma yaratish orqali dehqon va kichik fermerlarning daromadini oshirishga yordam berdi. UNDP ning loyihalarini ijtimoiy xizmatlar va infratuzilmaga kirishni yaxshilash, raqamli savodxonlikni oshirish va ijtimoiy himoya tizimlarini kuchaytirishga qaratilgan. FAO esa qishloq xo'jaligi texnologiyalari, yer boshqaruvi va gender tenglik sohasida muhim hissa qo'shdi. Xalqaro tashkilotlar tajribasining samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat: milliy ustuvorliklar bilan muvofiqlik - loyihalar O'zbekiston hukumatining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashtirilgan; institutsional hamkorlik - vazirliklar, mahalliy hokimiyatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi samarali koordinatsiya; maqsadli yondashuv - eng zaif guruhlar (ayollar, yoshlar, kambag'al oilalar) uchun maxsus dasturlar; innovatsiyalar - raqamli texnologiyalar, yangi qishloq xo'jaligi usullari va moliyaviy vositalarni joriy etish.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi siyosat talqinlari shakllantirildi. Birinchidan, xalqaro tashkilotlar tajribasini milliy dasturlar bilan integratsiyalash muhim ahamiyatga ega. "Kambag'allikdan farovonlikka" dasturi namunasida ko'rinib turibdiki, UNDP ning metodologik yordami va milliy siyosat maqsadlarining uyg'unlashuvi yuqori natijalarni ta'minlaydi. Ikkinchidan, qishloq moliyasiga kirishni kengaytirish zarur - IFAD ning Hamkorkbank bilan hamkorligi eng kichik dehqonlarga mikrokreditlar yetkazib berish imkonini berdi. Uchinchidan, raqamli texnologiyalarni qishloq hududlarida joriy etish ustuvor yo'nalish bo'lishi kerak. FAO ning Raqamli qishloqlar tashabbusi va UNDP ning raqamli savodxonlik dasturlari qishloq-shahar bo'linishini qisqartirishga yordam beradi. To'rtinchidan, gender tenglikka e'tibor berish muhim - ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish butun oila farovonligini yaxshilaydi. FAO ning "Hech kimni chetda qoldirmaslik" loyihasi bu borada muhim tajribani taqdim etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda qishloq hududlarida kambag'allikni qisqartirishda FAO, UNDP va IFAD loyihalarining rolini tahlil qildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, xalqaro tashkilotlar loyihalarini milliy kambag'allikni qisqartirish sa'y-harakatlariga sezilarli hissa qo'shgan. Kambag'allik darajasining 2021-yildagi 17 foizdan 2024-yil oxiriga kelib 8,9 foizgacha kamayishi, ayniqsa qishloq hududlarida yuqori natijalar qayd etilganligi bu hissaning yaqqol dalilidir. IFAD ning ADMP loyihasi Farg'ona vodiysida qishloq xo'jaligini diversifikatsiyalash, qiymat zanjirlarini rivojlantirish va qishloq moliyasiga kirishni yaxshilashda muhim natijalarni ko'rsatdi. UNDP ning "Barqaror qishloq rivojlanish" va "Kambag'allikdan farovonlikka" dasturlari ijtimoiy infratuzilma, bandlik va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda samarali bo'ldi. FAO ning yer boshqaruvi, raqamli qishloqlar va gender tenglik loyihalarini innovatsion yondashuvlarni joriy etishga hissa qo'shdi.

Xalqaro tashkilotlar tajribasidan samarali foydalanish uchun quyidagi omillar muhim: milliy ustuvorliklar bilan muvofiqlik, institutsional hamkorlik, maqsadli yondashuv va innovatsiyalar. Kelajakda qishloq kambag'alligini yanada samarali qisqartirish uchun xalqaro tajribani milliy kontekstga moslashtirish, qishloq moliyasi va raqamli texnologiyalarga kirishni kengaytirish, gender tenglikka e'tibor berish va iqlim o'zgarishiga moslashuvni ta'minlash tavsiya etiladi. Tadqiqot O'zbekistonning 2030-yilgacha kambag'allikni yarim marta qisqartirish va yuqori o'rta daromadli mamlakat maqomiga erishish maqsadlariga hissa qo'shadi. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, ularning tajribasidan samarali foydalanish va milliy siyosat bilan integratsiyalash bu maqsadlarga erishishning muhim shartidir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi. (2025). O'zbekistonda 2024-yilda kambag'allik darajasi. Toshkent.
2. FAO. (2025). FAO O'zbekistonda yer boshqaruvini mustahkamlaydi. FAO yangiliklari.
3. FAO. (2024). Qishloq kambag'alligini qisqartirish: Siyosat va boshqaruv. Rim: FAO.
4. IFAD. (2023). O'zbekiston qishloq xo'jaligini diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash loyihasi - Oraliq baholash hisoboti. Rim: IFAD.
5. IFAD. (2024). O'zbekistonda qishloq kelajagi: Mintaqaviy hisobot. Rim: IFAD.
6. OPHI & UNDP. (2024). O'zbekiston pilot ko'p o'lchamli kambag'allik indeksi. Oxford: OPHI.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2024). Ijtimoiy-iqtisodiy statistika. Toshkent.
8. UNDP. (2024). "Kambag'allikdan farovonlikka" dasturini ishga tushirish. UNDP O'zbekiston.
9. UNDP. (2023). Barqaror qishloq rivojlanish loyihasi: 2023-yil hisoboti. Toshkent: UNDP.
10. World Bank. (2024). O'zbekiston: Iqtisodiy rivojlanish va kambag'allik. Washington: World Bank.
11. Yangi O'zbekiston rivojlanish strategiyasi 2022-2026. (2022). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti f
12. armoni.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>